



Jizzax davlat  
Pedagogika  
Universiteti

TARIX FAKULTETI

# HISTORY AND SOCIETY

ИСТОРИЯ И ОБЩЕСТВО  
общественный электронный  
Журнал

№ 1

JOURNAL  
2024



## TARIX VA JAMIYAT ILMIY ELEKTRON JURNAL

2024-yil 1-son Ijtimoiy-gumanitar fanlar

Tarix, falsafa, huquq, sotsiologiya, tarix metodikasi

**Bosh muharrir:** Aqchayev F.Sh. JDPU, t.f.b.f.d. (PhD), dotsent.tarix fakulteti dekani

**Bosh muharrir o‘rinbosari:** Pardayev A.H. JDPU, tarix, t.f.n., dotsent

**Mas’ul kotib:** Karimova N.I JDPU, tarix,t.f.b.f.d (PhD)

### TAHRIRIYAT A’ZOLARI:

1. Sagdullayev A.S. – tarix fanlari doktori, Akademik
2. Ahmedshina F.A. – tarix fanlari doktori, professor
3. Shodmonova S.B. – tarix fanlari doktori, professor
4. Ochilova B.M. – falsafa fanlari doktori, professor
5. Choriyev S. – falsafa fanlari doktori, professor
6. Tulenova G. J. – falsafa fanlari doktori, professor
7. Pardayev M.H. – tarix fanlari nomzodi, dotsent
8. G‘oyibov B.S. – tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
9. Yarmatov R.B. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
10. Saidqosimov A.I. – f.f.b. fan doktori (DSc), professor
11. Amanullayev A. – f.f.b. fan doktori (PhD), dotsent
12. Toshboyev F.E. – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), professor
13. Mirkomilov B. – tarix fanlari nomzodi, professor
14. Kobzeva.O.P. - tarix fanlari doktori, professor
15. G‘ofurov J.I – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), dotsent
16. Hoshimxonov M.X. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
17. Valiyev A.X. – katta o‘qituvchi
18. Majidov A.S. – katta o‘qituvchi

**Dizayner va sahifalovchi:**

**Karimova. N.I**

## MUNDARIJA

1. **MUNDARIJA** \_\_\_\_\_ 3-4
2. **TARIX FANINI O'QITISHDA TARIXIY-BADIIY ADABIYOTLARDAN FOYDALANISHNING MAZMUNI VA MOHIYATI.** Ahror Pardayev Hasanovich. Zokirova Muxlisa. \_\_\_\_\_ 5-9
3. **TURONNING BOHODIR VA DONO AYOLLARI.** Boltayev Abdurasul. Olim Mamarasulov. \_\_\_\_\_ 9-14
4. **SOHIBQIRON AMIR TEMUR VA UNING HARBIY MAHORATI.** Boltayev Abdurasul. Abdullayev Abdulaziz \_\_\_\_\_ 15-18
5. **MUSTAQILLIK YILLARIDA JIZZAX SHAHRINI ZAMONAVIY QIYOFAGA KELTIRISH.** Abdurasulova Dilbar To'raevna . Soatov Diyor \_\_\_\_\_ 19-24
6. **FRIGIYA PODSHOLIGI.** Xamrayev G'ayrat G'aniyevich. Jumaqulova Diyora Ergashboy qizi. \_\_\_\_\_ 25-29
7. **KUSHON DAVLATI TARIXI VA MADANIYATI XUSUSIDA.** O.Abdig'apparov. Nabiyeva Farmuda. \_\_\_\_\_ 29-34
8. **MISR MADANIYATINING O'ZIGA XOS JIHLTLARI.** O.Abdig'apparov. Naxalboyev Fozilbek. \_\_\_\_\_ 34-38
9. **TA'LIMGA MILLIYLIK RUHI ASOSIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH SAMARADORLIGIGA OID.** J.O.Saidov. Shukurova Maftuna Alisher qizi. \_\_\_\_\_ 38-43
10. **G'ARBIY YEVROPADA YANGI DAVR MADANIYATINING SHAKLLANISHI.** To'ychiyeva Dilnoza Ikromovna. Yo'ldoshev Bektemir Tursunboy o'g'li. \_\_\_\_\_ 44-49
11. **ABDURAHMON JEVACHI — ERK VA OZODLIK KURASHCHISI.** B.Mirkomilov. Sh.Boymatov. \_\_\_\_\_ 49-53
12. **РОЛЬ ЖЕНШИН В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ (КОНЕЦ XIX И НАЧАЛО XX ВЕКА).** Каримова Наргиза Икрамовна. Акрамова Навбахор. \_\_\_\_\_ 53-58
13. **ПОЛИТИЧЕСКАЯ ЖИЗНЬ СРЕДНЕЙ АЗИИ В КОНЦЕ XIX - НАЧАЛЕ XX ВЕКА.** Каримова Наргиза Икрамовна. Бобокулова Севинч. \_\_\_\_\_ 58-64
14. **DAVLATCHILIK TARIXIMIZDA SIYOSIY TRANSFORMATSIYANING NAMOYON BO'LISHI** Jamshid.Eshboyevich. Toshboyev. Abdug'aniyev Jahongir. \_\_\_\_\_ 64-68
15. **TARIXIY ARXEOLOGIK MANBALAR VA UNING QADIM TARIXIMZDA TUTGAN O'RNI HAQIDA.**Furqat.Eshboyevich.Toshboev. R. Nosirova . \_\_\_\_\_ 69-73
16. **LARSA SHAHRI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR.** Tugalov Boburjon Baxodir o'g'li. Karimov Boburjon Bobomurod o'g'li. \_\_\_\_\_ 73-78
17. **ТОРГОВО-ЭКОНОМИЧЕСКАЯ И КУЛЬТУРНАЯ ЖИЗНЬ В СРЕДНЕЙ АЗИИ (В КОНЦЕ XIX - НАЧАЛО XX ВЕКА).** Каримова Наргиза Икрамовна, Машарипова Нодира. \_\_\_\_\_ 78-84
18. **TEMURIYLAR DAVRIDA SIYOSIY JARAYONLAR.** Burxonov Lazizjon Salimjon o'g'li. Nurullayeva Farangiz Dilshod qizi. \_\_\_\_\_ 85-89
19. **ТРАДИЦИИ И ОБЫЧАИ КАРАКАЛПАКОВ.** Каримова Наргиза Икрамовна Джумамуратова Инобат. \_\_\_\_\_ 89-93
20. **YOZMA MANBALARDA KESH VA NAXSHAB TARIXINING YORITILISHI** Jo'raqulova Nurmohi Ne'matulla qizi. Bobur Karimov. \_\_\_\_\_ 94-100
21. **KRIPTOGRAFIYA NIMA SABABDAN PAYDO BO'LDI YOXUD ILK SHIFRLASH NAMUNALARI.** Mirkomilov Baxtiyor.Axmedova Dildora Erkinjon qizi \_\_\_\_\_ 100-105

## KUSHON DAVLATI TARIXI VA MADANIYATI XUSUSIDA

JDFU Tarix fakulteti o'qituvchisi

### O.Abdig'apparov va 3-kurs talabasi Nabiyeva Farmuda

**Annotatsiya:** Kushon podsholigi siyosiy hokimiyat ruhoniylar qo'lida bo'lgan davlat bo'lib, unda podsho dunyoviy rahbar bo'lish bilan birga bosh kohin ham edi. Kushon podsholigi quldorlik davlati bo'lsada, unda qishloq jamoasi muhim o'rin tutgan.

**Kalit so'zlar:** Kushon podsholigi, Baqtriya, Sirdaryo, Hisor, Yuechji, Rim, Turushka va Tukhara.

Kushon podsholigi — o'rta osiyo va shimoliy hindistondagi qadimiy davlat (milodiy 1—3-asrlar). Milodiy 1-asrning 1-yarmi yohud o'rtalarida yuechjilar tasarrufidagi Kushon mulkining yuksalishi natijasida vujudga kelgan.

Massagetlar (Xitoy yilnomalarida — yuechji) miloddan avvalgi 140 yil Sirdaryo ortidan Baqtriyaga kelib, saklarni yenggan va Yunon-Baqtriya podsholigi o'rnida 1 asr davomida 5 ta qabilaga bo'linib yashagan. Bulardan kushon (Xitoy yilnomalarida guyshuan) qabilasi jabg'usi Kujula Kadfiz (Kadfiz I) milodiy 1-asrda qolgan 4 ta qabilani bo'ysundirib, o'zini hukmdor deb e'lon qilgan.

„Kushon“ nomi yo sulola yoki qabilaga oid bo'lib, u ilk bor miloddan avvalgi 1-asr oxiri — milodiy 1-asr boshida hukmron bo'lgan podshoh „Geray“ — Sanab zarb qildirgan tangalarda qo'llangan. Kushonlarning dastlabki mulklari hududiga Shim. Baqtriya (Tojikiston hamda O'zbekistonning janubi, Turkmanistonning janubi-sharqidagi hududlar) kirgan. Dastlab jabg'u, keyinchalik podsho unvoni bilan davlatni idora qilgan Kadfiz I Kushon podsholigiga asos solgan bo'lib, uning davrida kushonlar hozirgi Afg'oniston bilan Pokistonning aksariyat qismini istilo qilgan. Kadfiz I ning vorisi Vima Kadfiz hukmronligi davrida Hindistonning aksariyat qismi Kushon podsholigiga qo'shib olingan. Kushon podsholigining eng ravnaq topgan davri Kanishka hukmronlik qilgan vaqtga to'g'ri keladi. O'rta Osiyoda kushon mulklarining shim. chegarasi Hisor tizmasi bo'ylab, u yerdardagi tog' daralarida g'oyatda mustahkam chegara devorlari qurilgan.[1]

Kushon podsholigi davrida janglar tez-tez bo'lib turishi natijasida mamlakatda harbiy asir-qullar miqdori oshib borgan. Xitoy va Parfiya bilan kurash olib borayotgan Kushon podsholigi Yaqin Sharqda hukmron bo'lish uchun Parfiya bilan urushayotgan Rimning ittifoqchisi edi. Biroq savdo manfaatlari bu davlatlarni o'zaro yaqinlashtirgan. „Buyuk ipak yo'li“ bo'ylab xalqaro savdoning rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratilgan. Sharqda — Sharqiy Turkistonning qo'shib olingan shaharlar—vohalari orqali Xitoy bilan, jan da — kushonlarga tobe Shim. Hindiston bilan, g'arbda — dengiz yo'li bilan, Misr orqali yoki quruqlikdagi yo'l bilan Eron orqali O'rta dengiz havzasidagi Rim imperiyasi shaharlari bilan, shimolda Xorazm va Uralbo'yi orqali Sharqiy Yevropa bilan savdo qilingan. Janubiy O'zbekistondan kushonlar davriga oid 100dan ziyod shahar va qishloq harobalari aniqlangan. Bu davrda shahar va qishloq o'zaro mustahkam aloqada bo'lgan: har 1 shahar atrofida ko'plab mayda qishloqlar joylashgan.

Kushon podsholigi siyosiy hokimiyat ruhoniylar qo'lida bo'lgan davlat bo'lib, unda podsho dunyoviy rahbar bo'lish bilan birga bosh kohin ham edi. Davlat satraplik (qarang Satrapiya) larga bo'lingan bo'lib, ularning satrapparn ayrim erkinliklarga ega edi. Kushon podsholigi quldorlik davlati bo'lsada, unda qishloq jamoasi muhim o'rin tutgan. Kushon podsholari mamlakatda keng ko'lamda dinlararo murosasozlik siyosatini yurgizgan: aholi, asosan, buddizmnmg mahayana mazhabiga e'tiqod qilgan, shuningdek, mamlakatda zardushtiylik, otashparastlik, hinduizm kabi ko'plab boshqa dinlar ham bo'lgan. Hunarmandchilik, ichki va tashqi savdo keng taraqqiy etgan. Pul tizimida ko'proq zar va mis tangalar qo'llanilgan. Dehqonchilik, xususan, sug'orma dehqonchilik rivojlangan, qishloq xo'jaligi ekinlarining ko'pchilik turi ekilgan. Milodiy 3-asr 1-yarmi yoki o'rtalarida Kushon podsholigi barham topgan. Baqtriya — Tohariston maxsus mulk sifatida Sosoniylar davlati tarkibiga kirgan. Uni kushonshoh unvonli sosoniylar xonadoni vakillari idora qilgan[2].

Beruniyning „Hindiston“ asarida Kobulshohlardan bo‘lgan Barhategin Kanik (Kanishka) avlodi deyilgan. Bu kushonlar turkligini haqida farazlarni isbotlaydi.

Xitoy manbalarida Yuechjilar 5 ta qabiladan tashkil topgan deyilgan: Xiūmì (kíni), Guìshuāng (yángí), Shuāngmǐ (língín), Xìdùn (língín) va Dūmì (líni) nomi bilan mashhur va shulardan biri guìshuang (kánín, qadimgi xitoycha: kuj-s [s]raŋ), ya’ni kushonlar hisoblanadi. Amerikalik olim Christopher I. Beckwith fikricha, kushonlar va yuechjilar Eroniy xalqlardan biri bo‘lgan toxarlardan kelib chiqqan. Yapon olimi Kazuo Enoki Kushonlarni Eroniy qabilalardan biri Saklardan kelib chiqqan deya qayd etgan. Amerikalik olimlar James Patrick Mallory va Victor Henry Mair ta’kidlashicha, yuechjilar va kushonlar dastlab ko‘chmanchi Eroniy xalqi bo‘lgan, ular keyinchalik o‘troq toxarlar tomonidan qisman assimilyatsiya qilingan.

Yuechjilar „Buyuk tarixchining yozuvlari va „Xan kitobi“da hozirgi Xitoyning shimoli-g‘arbidagi Sharqiy Turkiston va Gansuning shimoli-g‘arbiy qismidagi yaylovlarda yashab, ularning podshohi Xiongnu (kēng) tomonidan boshi kesilgunga qadar yashaganligi tasvirlangan. Ular ham Xitoy bilan jang qilgan, bu esa oxir-oqibat ularni miloddan avvalgi 176-160 yillarda g‘arbga ko‘chib o‘tishga majbur qilgan.

Hindistonda Kushon imperatorlari tanga zarb qilishda muntazam ravishda sulola nomidan KOPANO („Koshano“) dan foydalanar edilar. Brahmi yozuvidagi sanskrit tilidagi bir qancha yozuvlar, masalan, Vima Kadfizlar haykalining Mathura yozuvi Kushon imperatorini Ku-ṣā-ṇa (Kushana) deb ataydi. Ba’zi keyingi hind adabiy manbalarida Kushonlar Turushka deb atalgan, VII asrda Toxaristonning G‘arbiy Turk xoqonligi qo‘liga o‘tganligi sabab keyingi sanskrit manbalarida bu nom Turk nomi bilan adashtirilgan. Jon M. Rozenfeldning fikricha, Turushka va Tukhara hind yozuvlaridagi Toxari so‘zining o‘zgarishidir. Amerikalik tarixchi olim André Winkning so‘zlariga ko‘ra, "hozirda hech bir tarixchi ularni turk-mo‘g‘ul yoki „xun“ deb

hisoblamaydi, garchi ularning O'rtasiyodan kelib chiqishiga hech qanday shubha yo'q".

Kushon podsholigi Rim, Parfiya va Xitoy bilan har jihatdan bellasha olgan qadimiy Sharqdagi eng qudratli saltanatlardan biri bo'lib, 2 asr mobaynida osiyoliklarning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotiga katta ta'sir o'tkazgan. Bir saltanat tarkibida 1 necha mamlakatlar, xalq va elatlarning birlashuvi turli madaniyatlarni o'zaro yaqinlashtirdi, davr madaniyatlari Baqtriya, yunon, sak va hind madaniyatlarini mujassamlashtirdi. Ammo, Kushon podsholigi madaniyati tarixining ayrim jihatlari hanuz noaniq bo'lib, tarixchi, sharqshunos va arxeolog olimlar ularga oydinlik kiritish uchun izchil va chuqur ilmiy tadqiqot olib bormoqdalar. Chunonchi, bu borada 1913 va 1960-yillarda London, 1968-yil Dushanbe, 1970-yil Kobulda xalqaro simpoziumlar o'tkazildi, YUNESKO qoshidagi Markaziy Osiyo tarixi va madaniyatini o'rganish komissiyasi esa kushonlar tarixi va madaniyatini o'rganishni o'z oldiga asosiy vazifalardan biri qilib qo'ydi.

Arxeologlar Kushon madaniyatiga oid Bagram, Balx, Began, Surxkxo'tal (Afg'oniston), Kosambi (Hindiston), Sirsukx, Taksila (Pokiston), Ayritom, Bozorqala, Dalvarzintepa, Zartepa, Ko'hna Voye, Termiz, Xayrobodtepa, Xolchayon (O'zbekiston), Kayqubodshoh, Ko'hnaqal'a, Shahrinav, Munchoqtepa (Tojikiston)da qazish ishlari olib bordi. Arxeologik topilma va ko'hna yozma manbalar asosida kushonlar madaniyatiga doyr quyidagi muhim ilmiy ma'lumotlar aniqlandi: burjli mustahkam mudofaa devoriga ega bo'lgan shahar qurilishi taraqqiy etgan, bir necha o'nlab shunday shaharlar, ko'plab yirik sug'orish inshootlari qurilgan. Shaharlar ichida arklar mavjud bo'lib, ularning atrofini turli binolar majmuasi qurshab turgan. Kushon podsholigining shim.-g'arbiy hududlaridagi binolar qurilishida ko'proq xom g'isht va paxsadan, jan.-sharqida esa toshdan foydalanilgan. Shaharlar, odatda, daryo bo'ylarida, strategik jihatdan qulay joylarda bunyod etilgan. Ular podsho saroyi, boy-zodagonlar va hunarmandlar mahallasi, ko'cha va maydonlar, hovo'zlar, turli dinlarga mansub inshootlar, ekinzor va bog'lardan iborat bo'lgan. Uylar ko'p

xonali, hashamatli bo‘lib, ba‘zilari ikki qanatliqilib qurilgan. Hovli sahni, xonalar poli, zinalar va boshqalarda turli hajmdagi pishiq g‘ishtlar qo‘llanilgan. Ayvon yog‘och ustunlari ostiga ohaktoshdan yo‘nilgan chiroyli tagkursilar o‘rnatilgan. Tomdan to‘shadigan suvlar uchun maxsus sopol tarnovlar ishlatilgan. Bino va xonalar haykaltaroshlik, tasviriy san‘at asarlari bilan bezatilgan. [3]

Haykal va rasmlarda, asosan, podsholar, podsho xonadoni a‘zolari, boy-zodagonlar, sozanda va masharabozlar tasvirlangan (mas, Xolchayonda). Budda diniga mansub inshootlarda esa Budda va uning safdoshlari, izdoshlari, kohinlar va xizmatkorlar ifodalangan (mas, Ayritom, Dalvarzintepa, Qoratepa, Fayoztepatsa). Haykallar, asosan, ohaktosh, loy va ganchdan tayyorlangan, ular orasida sirtiga tilla suvi yuritilganlari ham bor. Devoriy suratlarda esa diniy va bazm marosimlari, tabiat manzaralari, suvoriylar tasvirlangan. Kulolchilik taraqqiy etgan, topilgan sopol idishlar xilma-xilligi va o‘zining nozik, jarangdorligi bilan alohida ajralib turadi. Amaliy san‘at keng rivojlangan, uning eng yaxshi namunalari Sankt-Peterburgdagi Davlat Ermitajida saqlanmokda. Zeb-ziynat buyumlari, mehnat va jang qurollari yasash, mato to‘qish taraqqiy etgan. Kanishka I davrida Kushon-Baqtriya tili davlat tili sifatida qabul qilingan. Aholi, asosan, buddizm dinining mahayana mazhabiga e‘tiqod qilgan, ko‘plab budda ibodatxonalari qurilgan, shuningdek, otashparastlik, hinduizm ham keng tarqalgan. Kanishka buddizm tarixida birinchi bo‘lib vaqt-vaqti bilan diniy yig‘in chaqirib turishni joriy etgan. Dastlabki yig‘inda buddizmning mazkur yangi mazhabi — mahayana rasmiylashtirilgan. Bu esa buddizmning Osiyo mamlakatlarida keng tarqalishiga, uning jahon dinlaridan biriga aylanishiga sabab bo‘lgan. Topilgan tangalarning orqa tomonida turli ma‘budlar — Mixra-Mitra (Quyosh ma‘budi), Otash (olov ma‘budi), Farr (omad va ma‘murchilik ma‘budi) va boshqa tasvirlanganligi buni isbotlaydi. Saltanatda savdoning rivojlanishi yozuvning keng ko‘lamda tarqalishiga imkon yaratgan. Oromiy yozuvi asosida sug‘d va xorazmiy yozuvlari vujudga kelib, taraqqiy etdi. Hind



alifbosiga asoslangan kharoshthi yozuvi namunasi ilk bor Termizdan, teri va taxtaga bitilgan xorazmiy yozuvi namunasi esa Tuproqqal'adan topildi[4] .

Kushon podsholigi yerdaridan o'tgan Buyuk ipak yo'li tashqi savdoning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatganligi aniqlandi. Kushon podsholari zarb qilgan oltin, kumush va mis tangalar Efiopiya, Skandinaviya, Italiya va boshqa ko'pgina mamlakatlarda topildi. Bu esa Kushon podsholigi chet mamlakatlar bilan keng miqyosda savdo va madaniy aloqalar olib borganligidan dalolat beradi. Sharkdan olib kelingan ipakka G'arb bozorlaridagi mollar almashtirilgan. Umuman savdoda ko'p tovarlar qatori dorivorlar, Rim tilla tanga va taqinchokdari, fil suyaklari va undan tayyorlangan turli buyumlar hamda „tirik tovar“ — sozanda, raqqosa va hunarmand qullar ham bo'lgan. Kushon podsholigining dastlabki poytaxti O'zbekistonning jan.dagi Dalvarzintepada bo'lgan, podsho Kanishka davrida esa Peshovar shahriga ko'chirilgan. Ayni shu davrda badiiy, san'at maktablari (Gandhara, Matxura, Baqtriya) shakllandi. Kanishka adabiyot va san'at homiysi bo'lib, Kashmir viloyatida Kanishkapur shahriga asos soldi. Uning saroyida mashhur buddaviy olimlar Pareva va Vasumitra, buyuk shoir va faylasuflar Ashvagxosha, Matricheta, Vagamrjuva hamda Charaka yashab ijod qilgan.

### **Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:**

1. SH.R.Pidayev. Kushonlar davri madaniyati.T. 1975
2. A.Ziyo. O'zbek davlatchilik tarixi. T.2000
3. SH.Karimov. Vatan tarixi. T.1997
4. <https://library.samdu.uz/https://library.samdu.uz/>